



SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Madina DURDIYEVA

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti,

1-kurs talabasi,

madinadurdiyeva777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayonida mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Al vositalarining o'qitishni individuallashtirish, o'z-o'zini nazorat qilishni kuchaytirish, o'quv jarayonini boshqarish va motivatsiyani oshirishdagi roli ilmiy manbalar va zamonaviy ta'lim tajribasi asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt yordamida tashkil etilgan o'quv muhiti talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan qiziqish va samaradorligini sezilarli oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mustaqil o'qish, metakognitiv ko'nikmalar, adaptiv ta'lim, ta'lim texnologiyalari, o'quv motivatsiyasi, raqamli pedagogika

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni hayotning ko'plab sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Zamonaviy ta'limda asosiy e'tibor talabaniq mustaqil o'qish, ma'lumotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Bunday ko'nikmalar hayot davomida ta'lim olish tamoyillarining asosi hisoblanadi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivoji o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kirmoqda. SI asosidagi platformalar, chatbots, adaptiv o'qitish tizimlari va intellektual yordamchilar talabalarga mustaqil o'qish jarayonini samarali tashkil etish, o'z vaqtini boshqarish, individual ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bois SI texnologiyalarining mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Sun'iy intellekt yordamida individuallashtirilgan ta'lim muhiti bu sun'iy intellektning eng muhim imkoniyatlaridan biri ya'ni adaptiv ta'limni yo'lga qo'yishdir. Bunda tizim talabaniq bilim darajasi, o'rganish tezligi va xatolarini avtomatik tahlil qiladi va unga mos o'quv materiallarini taqdim etadi.

Quyidagi jihatlar individuallashtirilgan ta'lim samaradorligini oshiradi:

- O'quv yo'lining shaxsga moslashuvi. Al o'quvchining avvalgi natijalariga qarab yangi topshiriq darajasini tanlaydi.
- Ma'lumotlarni tanlab berish. Algoritmlar murakkab mavzularni soddalashtirgan holda taklif qiladi yoki aksincha, ilg'or darajadagi talabalarga qo'shimcha manbalar beradi.
- Individual tempda o'rganish. Har bir o'quvchi o'ziga qulay tezlikda materiallarni o'zlashtiradi.

Bu jarayon talabaniq mustaqil o'qishga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va o'zlashtirish sifatini oshiradi.



O'z-o'zini nazorat qilish va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda mustaqil o'qishning asosiy tayanchi bo'lib, o'z faoliyatini baholay olish va nazorat qila olish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt quyidagi *mexanizmlar* orqali bu ko'nikmalarni rivojlantiradi:

- Real vaqt rejimidagi tahlil va fikr-mulohaza. Tizim xatolarni ko'rsatadi, tushuntirish beradi va qayta bajarishni tavsiya etadi.
- Diagnostik testlar. AI asosidagi baholash tizimlari talabanning qaysi mavzuda qiynalayotganini aniq belgilaydi.
- O'quv natijalari monitoringi. Grafiklar, hisobotlar va statistikalar talabanning o'sish dinamikasini ko'rsatadi.

Bu jarayon talabanning metakognitiv faolligini kuchaytiradi, ya'ni o'z o'quv jarayonini kuzatish, rejalashtirish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quv motivatsiyasini oshirishda sun'iy intellektning roli juda muhim. Motivatsiya o'rganish jarayonining eng *muhim psixologik omillaridan* biridir. AI texnologiyalari orqali:

- Gamifikatsiya qilingan topshiriqlar (Gamifikatsiya atamasi bilan biz xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish, motivatsiyani oshirish va o'quvchilar ishtirokini rag'batlantirish maqsadida o'quv muhitida o'yin tamoyillari va elementlarini qo'llashni tushunamiz.),

- Ballar, reytinglar, yutuqlar tizimi,
 - Interaktiv simulyatsiyalar,
 - Qiziqarli vizuallar va animatsiyalar talabanning o'qishga qiziqishini oshiradi.
- Shuningdek, AI yordamchilari shaxsiy maslahatlar, eslatmalar va rag'batlantiruvchi xabarlar orqali ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Mustaqil ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Talabanning faolligi – bilim olish jarayoni to'liq ta'lim oluvchining o'z tashabbusiga bog'liq bo'ladi.
2. O'quv jarayonining erkinligi – talaba o'ziga qulay uslub, jadval va resurslarni tanlash imkoniyatiga ega, o'z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etadi.
3. O'zini-o'zi baholash – mustaqil ta'lim oluvchi o'z natijalarini kuzatib, kamchiliklarini aniqlaydi va o'rganish yo'nalishini mos ravishda o'zgartiradi.
4. Texnologiyalardan foydalanish – onlayn kurslar, elektron darsliklar, test tizimlari vana sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalari mustaqil ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. Hayot davomida ta'lim olish – mustaqil ta'lim nafaqat akademik muhitda, balki kasbiy rivojlanish va shaxsiy o'sishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda bilim va texnologiyalar tez o'zgarayotgan bu davr inson doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishini taqozo etmoqda. Bu esa hayot davomida o'qish, kasbiy salohiyatini oshirish va shaxsiy o'sishiga ham xizmat qiladi. "Ta'limda yaxlitlik va uzliksizlikni ta'minlash, uni inson hayoti davomida davom etadigan jarayonga aylantirish demakdir".[1] Shu asnoda, yangi qiziqishlarni kashf etish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi. Mustaqil ta'limni odatga aylantirish esa insonning muvaffaqiyatga erishishi va jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga zamin yaratadi.



Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida sun'iy intellektlardan (SI) foydalanish talabalar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratishga, ularning bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion ta'lim tizimini rivojlantirishga zamin bo'lmoqda. "Ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni yakkalashtirish, masofali ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida electron ta'limdan foydalangan holda ta'limni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi".[2]

Mustaqil o'qish jarayonida vaqtni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritilganda ta'limda vaqtni rejalashtirish ko'nikmasi talaba muvaffaqiyatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. *Sun'iy intellekt:*

- darslar jadvalini tuzadi,
- muddatlarni eslatadi,
- o'quv yuklamasini balanslaydi,
- samarali o'qish strategiyalarini taklif qiladi.

Bu vositalar talabaning o'z vaqtini mustaqil boshqarishiga yordam beradi va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Sun'iy intellekt asosidagi qidiruv va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlaridan keng foydalanishda AI vositalari quyidagilarni amalga oshiradi:

- murakkab matnlarni soddalashtirib berishi, izohlar va ta'riflar yaratishi,
- keng ko'lamli ma'lumotlardan eng muhim qismini filtrlay olishi,
- o'quvchi yoku talabaning savollariga real vaqt rejimida javob berishi mustaqil izlanish jarayonini samarali va ixcham qiladi. Natijada talaba informatsion savodxonligini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, sun'iy intellekt mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ulkan pedagogik imkoniyatlarga ega. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayoni - shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv, doimiy tahlilga asoslangan, yuqori motivatsion, tartibli va tizimli ko'rinishga ega bo'ladi. Bu esa talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etib, mustaqil o'qish madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Kelajak ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va metakognitiv ko'nikmalarining kuchayishiga bevosita hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, J. Artificial Intelligence and Learning Systems. New York: Routledge, 2021.
2. Clark, R., & Mayer, R. E-learning and the Science of Instruction. Wiley, 2019.
3. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence. UCL Press, 2018.
4. UNESCO. AI in Education: Global Report. Paris, 2023.
5. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. Oxford University.
6. Yuldoshev I.A. Ta'limda zamonaviy texnik vosita va texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya. 2015. 172 b.